INGLIZCHA QO'SHIQLARNING AHAMIYATI**

*Annotatsiya:* Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda tinglab tushunishni qo'shiqlar asosida shakllantirish va ular orqali ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish yuzasidan mulohazalar bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* tinglash, tushunish, qo'shiq, nutq, so'z boyligi

*Ismatullaeva M.A.*

*magistri*

*ADPI*

**THE IMPORTANCE OF ENGLISH SONGS IN THE FORMATION  
OF COMPREHENSION SKILLS FOR PRESCHOOL CHILDREN BY  
LISTENING TO THEIR LANGUAGE**

*Annotation:* In the article, there are comments on the formation of listening comprehension on the basis of songs in teaching foreign language to children of preschool age and increasing their interest in the English language through them.

*Key words:* listening, comprehension, song, speech, vocabulary

Jahonda til o'qitish metodikasi fani rivoj topib, XX asrning o'rtalaridan boshlab kishilar o'rtasidagi xalqaro muloqot quroli bo'lgan xorijiy tilni o'qitish

yangi mazmundagi bosqichga ko'tarilgan. Shu jumladan, ingliz tilini ham o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib, yoshlar o'rtasida til o'rganish uchun qiziqish kuchaymoqda. "Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish" kabi vazifalar belgilangan.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq.[1]

Maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarni kashf qilish davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar faol, ijodkor, qiziquvchan, intiluvchan hamda taqlidchan bo'ladi va ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalash va kamolga yetkazish uchun ilk devonchasi deb ayta olamiz. Kelgusida bolalarni yetuk va malakali mutaxassislar qilib tarbiyalashda xorijiy tilning o'rni katta. Shu sababdan xorijiy tilni o'rgatish ayni shu davrdan boshlanishi maqsadga muvofiq deb topilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" qarori Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga (MTT) qaratilgan katta e'tiborlardan biri bo'ldi. Yosh tarbiyalanuvchilarga ingliz tili so'zlarni o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan o'qitish usullaridan biri qo'shiqdir. Qo'shiq uzoq vaqtdan beri inson hayotining bir qismi bo'lib kelgan. Yosh o'rganuvchilarning ingliz tilidagi so'z boyligini oshirishda qo'shiqlardan foydalanish bo'yicha tadqiqot Devi tomonidan amalga oshirildi. O'z tadqiqotida u qo'shiqdan foydalanish yosh o'rganuvchilarning so'z boyligini oshirishi mumkinligini aniqladi. Bundan tashqari, qo'shiq o'rganuvchilarga so'zlarning ma'nosini oson tushunishga va lug'atni yod olishga yordam berishini tushuntirdi. Shuningdek, u qo'shiqni til o'rganish uchun huzurbaxsh va qiziqishini oshiruvchi sifatida yordam berishini ta'kidlaydi. Qolaversa, qo'shiq bolalarning o'zlarini

erkin his qilishlari va mashg'ulot jarayonida xotirasiga hech qanday yuk bo'lmasligi uchun bo'sh muhit yaratib, xavotirini kamaytirishini tushuntiradilar. Mahalliy va xorijiy psixologlarning fikriga ko'ra, musiqa tinglash lingvistik materialga yodlashning samarali usullaridan biridir, chunki u miyaning ikkala yarim sharlarini o'z ichiga olgan faoliyat turini aks ettiradi, bu esa o'z navbatida o'rganilgan materialni yodda saqlashga hissa qo'shadi va tajriba sifatida ko'rsatadi. Krashen va Terrelning fikricha, tilni o'zlashtirish uchun bolalar qo'shiqlari kommunikativ vaziyatlarda ya'ni bolalarning o'rtoqlari bilan kuylash orqali ularda tildagi qobiliyatni rivojlantirish ko'makchisidir deydi.[3] Griffening ta'kidlashicha, qo'shiqlar til o'rganish uchun juda muhim bo'lgan do'stona va hamkorlik muhitini yaratishga yordam beradigan vositadir.[4] Ta'limda yaxshi natijaga erishish uchun chet tili o'qituvchilari ingliz tili darslarida bolalarga zerikarli bo'lmasligi va bu tilga bo'lgan muhabbatini oshirishi uchun tabiiy va do'stona muhit yaratishi lozim. Bu orqali ingliz tili mashg'ulotlarni olib borish tarbiyalanuvchilarga zavq tuyg'usini beradi va bolalarni fanga bo'lgan muhabbatini oshiradi, hamda an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda samarali mashg'ulot jarayoniga aylantiradi. Qiziqarli qo'shiqlar aytish bolalarga til o'rganish jarayonida so'zlar va jumlar tuzilishini o'rganishiga va yangi o'zlashtirgan so'zlarni eslab qolishiga yordam beradi. Ingliz tilidagi bolalar qo'shiqlari yordamida bolalarning so'z boyligini boyitish va turli ingliz tilidagi so'z urg'ularini yaxshilash maqsadida chet tili mashg'ulotida foydalanishimiz mumkin. Tadqiqotchi Fillipsning so'zlariga ko'ra, "Bolalar qo'shiqlari ingliz tilidagi tovushlar, qofiyalar va so'z urg'ularini mashq qilish uchun o'rgatiladi" deydi olim. Haqiqatan ham, ular inglizcha so'zlarni qanday qilib talaffuz qilishga yordam beradi.[5] Izabel Mariya tahlil qilganidek, "Qo'shiqlarning ikkita asosiy omil borligini ta'kidlaydi: lingvistik omillar va effektiv omillar ostida umumlashtiriladi".[6] Ingliz tilidagi qo'shiqlari yosh til o'rganuvchilarining so'z boyligini kengaytirish, bolalarning tinglash va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish va bolalarni chet tili madaniyati bilan tanishtirish uchun foydali deb topildi.

Ikkinchi omil affektiv omil bo‘lib, inglizcha qo‘shiqlar bolalarni til o‘rganishi uchun zavq bag‘ishlaydi, ularni mashg‘ulotda faol ishtirok etishga undaydi, o‘qituvchining o‘z tarbiyalanuvchilari bilan yaqinlashishiga yordam beradi, bolalarning chet tiliga qiziqishlarini uyg‘otadi va tilda jonli muhit yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, qo‘shiqlar tarbiyalanuvchilarning ikkinchi tilni o‘rgatishdagi dastlabki vosita bo‘lishi bilan birga bolani estetik tarbiyasiga, jamoada ishlashni, qo‘shiqlarni aytish davomida ravon nutq shakllanishiga va har bir bolaning yangi ijodiy qobiliyatlarini yanada to‘liqroq ochib berishga yordam beradi. Til mashg‘ulotida qo‘shiq tufayli qulay psixologik muhit yaratiladi, bolalarni psixologik stressi kamayadi, til faolligi faollashadi hamda chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2018 йил 5 мартдаги Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исоқхон Ибрат номидаги мактаб-интернатига ташрифдаги нутқи. Электрон ресурс: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>. Мурожаат санаси: 26.11.2018 й.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq.
3. Krashen , Stephen D. and Terrel, Tracy. D. (1983). The natural approach. New Jersey: Alemany Press Regent / Prentice Hall.
4. Griffe, D. (1992) Songs in actions: Classroom techniques and resources. New York. Prentice Hall.
5. Phillips S. (1993) Young learners. Oxford. England: Oxford University Press.
6. Isabel Maria , Antonio Daniel. The use of rhymes and songs in the teaching of English in Primary Education. Docencia e investigacion . N 25.2 (2015)

УДК: 821.512.133

*Ismonaliyeva M.J.*

*Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

*O`zbekiston, Namangan*

**POLVON KONSEPTI MILLIY OILA TUSHUNCHASINI ANGLASH  
VOSITASI SIFATIDA**

*Annotatsiya: Ushbu maqola o`zbek milliy oilasi tushunchasi, unda ota va farzand munosabati, shuningdek, mavjud ijtimoiy shart-sharoit shaxsning axloqiy tubanlashuvi, uning fojiasiga sabab bo`lishi ko`rib chiqiladi. N.Norqobilovning "Qoyalar ham yig`laydi" asarida oilaviy qadriyatlar, undagi intizom masalasi, mavjud jamiyatning ijtimoiy-ma`naviy holati bilan bog`liqlikda talqin etilganligi, qadimiy kurash san`ati, o`zbek xalqi qadriyatlari asosida shakllangan polvon konsepti ijodkorning mavjud davrni anglash vositasiga aylanishi tadqiq etiladi.*

*Kalit so`zlar: polvon konsepti, polvon obrazi, milliy oila tushunchasi, polvonlik qadriyatlari, zidlik munosabati.*

*Ismonaliyeva M.J.*

*Andijan State University Foundation doctoral student*

*Uzbekistan, Namangan*

**THE POLWON CONCEPT AS A MEANS OF UNDERSTANDING  
THE CONCEPT OF A NATIONAL FAMILY**

*Abstract: This article examines the concept of the Uzbek national family, the relationship between father and son, as well as the existing social conditions, the moral degradation of a person, and the cause of his tragedy. In N.Norqabilov's work "Rocks also cry", family values, the issue of discipline in it, interpreted in*

*connection with the socio-spiritual state of the existing society, the concept of wrestling formed on the basis of the ancient art of wrestling, the values of the Uzbek people, the author's understanding of the current period will be studied.*

**Key words:** *the concept of wrestler, the image of wrestler, the concept of national family, values of wrestling, attitude of conflict.*

Milliy oila tushunchasi o`zbek xalqi qadriyatlarining asosiy ko`rinishlardan biri sanaladi. Uning jamiyat rivoji va shaxs tarbiyasidagi ahamiyatini davrning ma`naviy ehtiyojidan kelib chiqib badiiy tadqiq etishga polvon konsepti asos bo`ladiki, bu mazkur konsept shaxsning jamiyat, mahalla, oila yoki ma`lum bir ijtimoiy davrada qadriyat va an`analar bilan bog`liqligi, ya`ni uning ifodasida shaxs va qadriyatning uyg`unlashuvi oilaviy munosabatlarni keng badiiy talqin etish imkonini beradi. N.Norqobilov ijodida polvon obrazi jamiyatdagi va, ayni chog`da, tabiatdagi izlanishlaridan chiqargan xulosalarini ifoda etadi. Muallif ijodiy ideallarining xarakteri, shuningdek, taqdiri ham tabiatning tabiiy hukmlariga yondosh yaratilgan. Balki bu adibning televideniya uzoq yillik faoliyati davomida ochiq tabiatga uyishtirilgan ekspeditsiyalarning asoschisi va rahbari bo`lganligi bilan bog`liqdir. Adibning “Qoyalar ham yig`laydi” asarining nomi ramziy ma`noga ega bo`lib, bu yerda qoya – padari buzrukvorni, ya`ni ota shaxsini anglatsa, yig`lamoq esa, tabiiy bir holatda, uning nimadandir norizo kayfiyatini ifoda etadi. Milliy tafakkurimizdan kelib chiqib, otaning qoyaga muqoyasa etilishi bu – mumkin bo`lgan, emotsional bahoga ega o`xshatma, ammo otaning yig`lashi va yoki yig`latilishi, o`zbek milliyatida ham diniy, ham dunyoviy jihatdan qabul qilinmaydi, axloqan rad etiladi. Endi asar nomida o`ziga xos zidlik munosabatining mavjudligi ochiqqlanadi. Agar ota qoyadek ulug`vor bo`lsa, unda nega u yig`ladi?

Asarning nomlanishidanoq yuzaga chiqqan zidlik munosabati qahramonlar o`rtasida sodir bo`luvchi voqealar, ularning xarakteri va harakatlarida ham saqlanib qolgan. Dag`al va tund, ammo halol va to`g`riso`z Ernazar polvonning

besh o`g`ilidan faqat birining kurash tushmasligi, uni ota tomonidan “qizbet” deb atalishiga sabab bo`ladi, chunki ota falsafasicha, “o`g`il bola polvon bo`lishi kerak, tamom-vassalom”. Ernazar polvon o`z avlod-ajdodining polvonlardan ekanligi va uning ta`sirida shakllangan naslining “buloq suviday toza”ligidan faxrlanib yashaydi. Ammo uning o`g`li O`sarning nazdida ota va uning qadriyatlari hech qanday qimmat kasb etmaydi, balki “...otasini eskigan-tuskigan, hayotdan nihoyatda orqada qolib ketgan odam deb hisoblardi. Shuningdek, u akalari haqida ham shu fikrda edi” [1.348]. Qahramonlar o`rtasidagi o`zaro zid munosabat ulardagi xarakter xususiyatning (ruhiy-ma`naviy qiyofasi) ochiqlanishi, harakatlari va taqdirigacha kechgan jarayonda keskinlashib boradi, ya`ni u asarda darajalanish xususiyatiga ega bo`lib, uning asosida ota va o`g`ilning polvonlik qadriyatiga nisbatan turlicha qarashlari yotadi. Masalan, ota uchun polvonlik – qadriyat, yigit kishining asosiy sifati bo`lsa, o`g`il uchun polvonlik – tentaklik, otasining turmush-tarzi eskirgan. Ota va o`g`ilning turlicha qarashlari natijasida ziddiyatli munosabatlarning keskinlashuvi kuzatiladi, ammo qahramonlar o`rtasidagi birinchi konfliktli holat kurash sahnasi bilan bog`liq voqeada yuzaga chiqadi: “Yigitday bo`p senam bir bel tutgin! – dedi Ernazar polvon yalinib, o`z navbatida or-nomusdan qilt-qilt titrab. – Odamni buytiblar yer qima endi! O`sar bosh chayqab, o`zini ortga oldi-da, odamlar orasida ko`zdan g`oyib bo`ldi” [1.312]. Birinchi konflikt zamirida, bevosita qahramonlarning keyingi to`qnashuvi ham yetilib boradi, bu O`sarning qismati, uning o`limi bilan bog`liq jarayon bo`lib, ayni chog`da, voqealar kulminastiyasini ham ifoda etadi. Qahramonlarning ziddiyatiga, avvalo, ularning kurash va polvonlik masalasini qanday anglashlari, e`tiqodining turlichaligi sabab bo`lgan bo`lsa, endi u rivojlanib, ota va o`g`ilning jamiyat, oilaga qaratilgan munosabati, axloq, nomus masalasida eski va yangi davr vakillari o`rtasidagi tubdan farqlilikni yuzaga chiqaradi. Biroq muallif polvonlik qadriyatlariga bo`lgan munosabatning turlicha ekanligini har ikki konfliktning ham asosi sifatida qabul qiladi va shunday talqin etadi. Ya`ni asarda o`g`ilning otasi uchun muqaddas an`ana, oilaviy qadriyatga

aylangan e'tiqod – jamiyatda polvon bo`lib yashash maqomini rad etishi, shuning barobarida o`z muhitidan uzoqlashib borar ekan, bu undagi axloqiy tubanlashuvning sababiga aylanishi, natijada esa uning fojiasi – otaga oq bo`lish va xiyol o`tmay qoyalar ko`chkisi ostida qolib halok bo`lishi, oilaviy qadriyatlarini tan olmaslik, ya'ni insonning o`zlikdan uzoqlashishi, uning ma'naviy tanazzuliga aylanishi haqidagi badiiy-konseptual hukm saqlanadi.

Qahramonlar o`rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvi ularni faol harakatga keltiradi. Otaning o`g`liga nisbatan “anglarsiz shubha”lari eski raqibi, Sami cho`loqning mamnuniyat bilan e`lon qilgan: “Bolasi tushmagur, shaytongina, Ernazar polvonning urug`ini ko`paytirmoq ilinjida yurganga o`xshaydi” [1.301], – degan so`zlari bilan tasdig`lanadi hamda “balchiq bosib” yurgan o`g`lini izga solish maqsadida do`sti G`aybulla merganning: “Kaltakdan ulingiz jismidan jin qochib, tani va ruhi undan poklanadi” [1.364], – degan maslahati sabab toqqa boshlab borilishi barobarida qahramonlar o`z qismati tomon harakatlanadi. Asarda *qartayib qolgan ot, yonib ketgan archa* detallari orqali ota ruhiyatida hosil bo`lgan tushkun kayfiyat yuz beruvchi halokatga ishora qiladi, o`g`il uchun esa uning orzu-havasi yo`lida g`ov bo`lib turgan, otaning qahr-g`azab sirmog`idan tezroq qutilish va o`z dunyosiga qaytish istagida “Ota, siz gunoh deb bilgan narsani odamlar allaqachon gunoh deb bilmay qo`ygan... Kovakda yotaverib, dunyodan bexabar qolgansiz. O`zingizdek, fikrlaringiz ham eskirgan. Har narsadan fojia yasamay, bunday tevarakka qarang, odamlar qanday yashayapti” [1.372], – deb aytilgan so`zlari tufayli otada o`z naslini bulg`agan o`g`liga nisbatan paydo bo`lgan qahr kuchi muvozanatdan chiqadi va endi bu to`qnashuv oila vakillari o`rtasida kechayotgan ziddiyat emas, balki qadriyat va zamonning bahsiga aylanib qoladi. Bunda har ikki tomonning o`z qarashlari mavjud bo`lib, “Qachongacha tizginida yashaymiz? Har narsaning cheki-chegarasi bor” fikriga kelgan o`g`il *axloqan tubanlashgan davrning*, “Sen tufayli ertan bir gala qoni buzuq nevaralarga bovo bo`lishni istamayman!” qaroriga kelgan ota obrazi esa, ana shunday axloqsiz davr va jamiyatga qarshi turgan *or-nomus, halollik* kabi

qadriyatlarning ifodachisi bo`lib xizmat qiladi. Asarda aynan mavjud davr va uning vakillari ruhiyatini anglash uchun polvon konsepti tanlanishining boisi ham, unda ana shunday axloqiy-ma'naviy qadriyatlarning mujassamligi va uni inson turmush-tarzi bilan bog`liqlikda badiiy ifoda etish imkoniyatining yuqori ekanligidir. Qissa voqealari qilmishlari uchun jazolanishdan bosh tortayotgan o`g`ilning otaga qo`l ko`tarish (...kutilmaganda lunjiga kelib tushgan zarbdan ko`z oldi qorong`ilashib, gandarab ketdi. Yo alhazar, farzand otaga qo`l ko`tarmoqda!) sahnasi bilan o`z kulminastiyasidan yechimga ko`chadi. Yuqorida aytilganidek, adib ijodida asarlarning badiiy-konseptual hukmi tabiatdan chiqarilgan xulosalarga monand bo`lib, qissada oqpadar o`g`ilning qoyalar ostida qolib halok bo`lishi sahnasida ham ana shunday tabiat hukmlariga hamohanglik seziladi. Xulosa qilinadiki, o`g`ilning bu qilmishidan uni qurshab turgan tabiatning qahri keladi, tog` qoyalari ko`cha boshlaydi: “O`sar hech qayerda ko`rinmas, ko`chki uni o`z bag`riga mahkam yashirgandi. Ernazar polvon duch kelgan toshga yopishib, birini chetga itqitib, birini yumalatib, bekorga qidirishda davom etarkan, nuqul “ulim”lardir” [1.379]. Otaning ko`z oldida qisqa fursatda sodir bo`lgan ikki fojiviy manzara – o`g`ilning qilmishi uchun “oqpadar” bo`lishi va uning o`limini ilojisiz kuzatishi – qahramon ruhiyatida kechayotgan qarama-qarshi jarayonning nihoyatda tezlashtirib berilishidan, yuz berayotgan voqeaning o`quvchiga hissiy ta`sir etish kuchi ortadi va qoyaning yig`lashi haqidagi badiiy mantiq hech qanday zo`riqishsiz qabul qilinadi.

Polvon konsepti qadimiy kurash san`ati va unda ishtirok etuvchi qatnashchiga qo`yiluvchi *halol, mard, oriyatli, vijdonli, g`ururli* bo`lish kabi talablar asosida, asrlar davomida shakllanib kelgan polvonlik qadriyatlaridan hosil bo`lgan. Ushbu konsept *kurash* va *polvon* tushunchalarining entsiklopedik ma`nosi ustiga, xalqning milliy-madaniy qarashlari bilan bog`liq tasavvurlarning qo`shilishidan hosil bo`lishi, ijodkor uchun mavjud davrni anglash vositasi bo`lib xizmat qiladi. Tahlil qilingan asarda ham, ota obrazida ifoda etilgan polvon konsepti o`g`ilning qarashlariga keskin zidlanadi hamda ularning o`ylari,

iztiroblari, harakatlaridagi qarama-qarashiliklar orqali mavjud davr voqeliklari badiiy idrok etiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Норқобилов Н. Бекатдаги оқ уйча. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.384.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 400 б.
4. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 224 б.

*Kurbanov G.A.*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi  
dotsent, podpolkovnik*

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA OLIY HARBIY TA'LIM  
MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING KASBIY  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-  
SHAROITLARI**

*Annotatsiya. Ushbu maqola oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashga bag'ishlangan.*

*Kalit so'zlar: oliy harbiy ta'lim muassasasi, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, pedagogik shart-sharoitlar, o'qituvchi, kursant, tajriba, mahorat.*

*Kurbanov G.A.*

*National University of Uzbekistan*

*Senior instructor of the military training center  
associate professor, Lieutenant Colonel*

**PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF  
PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF HIGHER  
MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF AN  
ACMEOLOGICAL APPROACH**

*Abstract. This article is about the development of professional competence of teachers of higher military educational institutions in the process of the rapid development of multilateral international relations.*

**Key words:** *teacher, cadet, higher military educational institution, development of professional competence, international relations, cooperation, experience, professionalism.*

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga akmeologik yondashuvni amalga oshirish zarurati va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish uchun asos bo'lmoqda. Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy tadqiqotlar bo'lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi texnologiyalarini ishlab chiqishga konseptual yondashuvlar va harbiy xizmatchilarda kasbiy mutaxassislikni oshirish mexanizmlari asosida olib borilmoqda.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari tizimini modernizatsiya qilish, jamiyat talablari bilan integratsiya qilish, me'yoriy hujjatlardan, shuningdek, zamonaviy oliy harbiy ta'limni rivojlantirish shakllari va usullaridan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

XXI-asrning boshlarida dunyoning aksariyat mamlakatlarida, xususan, MDH maydonida tarixiy-ijtimoiyshunoslik ta'lim tizimida yuz bergan katta o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayoniga va o'qitishning nazariy asoslariga ham, amaliyotiga ham o'z ta'sir ko'rsatdi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda ta'lim, ilm-fan jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan yangi uslubiy yondashuvlar paydo bo'ldi, ilgari ishlab chiqilmagan mavzular fanning muammoli sohasiga kirdi, ko'plab tarixiy voqealar yangicha talqin qilinga ega bo'ldi, yangi ta'lim standartlari, dasturlar, darsliklar va uslubiy qo'llanmalar yaratildi. Ta'lim tarixi uning mazmuni va usullaridagi tub o'zgarishlar davlat darajasida bir qator chora-tadbirlar qabul qilinishini shart qilib qo'ydi.

Hozirgi vaqtda akmeologik yondashuv asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini texnologiyalari

rivojlanishi kuzatilmoqda, jamiyatimizda qabul qilingan shaxsning ma'naviy-axloqiy me'yorlarini o'rganish va boyitish qobiliyatiga ega malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi takomillashtirildi, ularning faoliyatini samarali tashkil etish uchun bilim va ko'nikmalarni qo'llash maqsadida normativ-huquqiy asos ishlab chiqilmoqda.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining nazariy tayyorgarligi quyidagi ko'nikmalar bilan bog'liq: pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ularni pedagogik muammolarni hal qilishning maqbul usullarini topish; o'qitish va uning natijalarini bashorat qilish: maqsadlarni belgilash, ularga erishish usullarini tanlash, o'quv mazmunini loyihalash, muammolarni hal qilish rejasidan chetga chiqishni oldindan bilish va ularni engib o'tishning mumkin bo'lgan usullarini bilish; o'quv jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda; o'zlarining pedagogik harakatlarini tushunish va baholash.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati muvaffaqiyatining ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: dasturlar va grantlar tanlovlarida ishtirok etish; ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish; monografiyalar, ilmiy maqolalar tayyorlash; ilmiy konferentsiyalar va seminarlarda ma'ruzalar; patentga talabnomalarni tayyorlash va ro'yxatdan o'tkazish; ilmiy maqolalarni ko'rib chiqish; talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining amaliy tayyorgarligining mazmunini uning qobiliyatlarida namoyon bo'ladigan harakatlar bilan aniqlash mumkin: kursantlarda o'rganishga doimiy qiziqishni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilish orqali bilimga faol, ijodiy munosabatni shakllantirish; har xil manbalardan ma'lumot olish va uni o'quv jarayonining maqsad va vazifalariga nisbatan qayta ishlash; savollarni shakllantirish; kognitiv mustaqillikni rag'batlantirish va ijodiy fikrlash. Lekin yuqorida ko'rsatilgan talablar hozirgi kunda oliy harbiy ta'lim muassasalarida akmeologik yondashuv

asosida o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari to‘liq tadbiiq qilinmayapti.

Harbiy ta‘lim tizimida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar o‘qituvchilarni o‘quv jarayonini tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini izlashga yo‘naltiradi, ularga qo‘yiladigan talablar Davlat ta‘lim standartida va oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablarida belgilangan. Bu hujjatlar oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarida yuqori darajadagi kasbiy malakani shakllantirish zarurligini aks ettiradi. Zamonaviy sharoitda oliy harbiy ta‘lim muassasalari yuqori darajadagi professional malakaga ega o‘qituvchilarga juda muhtoj.

Maqsadli komponent o‘z ichiga maqsadni qamrab olgan.

Motivatsion komponent oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining motivlari, individual ahamiyatli qadriyatlar jamlanmasi va pedagogik faoliyati yo‘naltirilganligining muhim tavsifi tarzida olib qaraladi. Ehtiyojni anglash va motivni shakllantirish Yu.G.Fokinning fikriga ko‘ra, “sinalayotgan talab-ehtiyojni qondirish uchun kerakli narsani ongli ravishda tanlab olish”ga imkon beradi; talab-ehtiyojni qondirish usulini tanlab olishda rahbar” qadriyatli yo‘nalishlarga, nima qilish mumkin-u, nimalar qilish axloqsizlik bo‘lishi haqidagi ijtimoiy tasavvurlar”ga, huquq me‘yorlariga tayanadi.

Mazmunli komponent faoliyat asosini, real iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qila olish va loyihalashtira bilish mahoratini, iqtisodiy muammolarni hal qilish usullarini tanlay olish asoslarini shakllantiradigan zaruriy iqtisodiy va huquqiy bilimlar jamlanmasini oladi. Harakatlarni mos holdagi modellar va qonuniyatlarsiz amalga oshirish mumkin emas yoki o‘ta samarasiz bo‘ladi. Kasbiy kompetentsiya deklarativ (dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, qonunlar, modellar, nazariyalarni bilish) va protseduraviy (faoliyat metodlarini bilish) xususiyatlardagi bilimlar tizimi mavjudligini ko‘zda tutib, ular tipik va nostandart muammolarni hal qilishda foydalana olishga imkon beradi.

Faoliyatli komponent muammolarni hal qila bilish mahorati jamlanmasi bilan namoyon bo‘ladi. Kasbiy kompetentsiya vaziyatni, muammoni, maqsadni, uni hal qilish usuli va shart-sharoitlarini anglashdan iborat bo‘ladi. Amalga oshirish texnologiya bo‘yicha kasbiy kompetentsiya bilimlardan amaliy vaziyatda foydalana olish va faoliyatning ma‘lum usullarini yangicha sharoitlarga olib o‘ta bilishdir. Shunday qilib, kasbiy kompetentsiya oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari ma‘lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshira olishga qobilligini ifodalaydi.

Pedagogikada shart-sharoitlar tadqiq qilinayotgan jarayon bilan birga boradigan obyektiv imkoniyatlar, holatlar va chora-tadbirlar jamlanmasi sifatida olib qaraladi. Ular ma‘lum bir tartibda tuzilmalangan va belgilangan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan. Ta‘limni rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, ta‘lim mazmunini yangilashda faoliyatini yo‘nalishini tavsiflovchi intellektual, shaxsiy va irodaviy sifatlarini, shaxsiy mahoratini aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyaning hodisalarni ko‘ra bilish va tahlil qila olishda namoyon bo‘luvchi fikrlashning rivojlanganligi hisoblanadi va o‘qituvchining qobiliyatini intellektual, shaxsiy va irodaviy sifatlarini, shaxsiy mahoratini aks ettiradi.

Oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarida kasbiy kompetentsiyaning rivojlanishining darajasi, uning malakasi, tajribasi, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini tavsiflovchi intellektual, shaxsiy va irodaviy sifatlarini aks ettiradi.

Oliy harbiy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining malakasi va tajribasining kamligi, kasbiy vazifalarning murakkabligidan orqada qolishi pedagogik jamoaning, har bir o‘qituvchining doimiy va ilg‘or, uzoq muddatli malaka oshirishga umumiy ehtiyojidan dalolat beradi. Yangi avlodini tarbiyalash uchun o‘qituvchi bilimdon va xulq-atvorda moslashuvchan, g‘ayratli va o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila oladigan, muloqotda ochiq bo‘lishi kerak.

Yangi avlod standartlari amaliyotga qaratilganligi bilan oldingilaridan farq qiladi. Ta'limi sifatini oshirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda, uning yechimi oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy malakasiga bog'liq. Kasbiy kompetensiya deganda, o'qituvchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy va shaxsiy sifatlar majmui tushuniladi. Shu sababli, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi uning o'qituvchilik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotni yetarli darajada yuqori saviyada olib boradigan, kurdantlarni o'qitish va tarbiyalashda izchil yuqori natijalarga erishadigan, ijodiy mehnat qiladigan, pedagogik yangiliklarni qabul qiluvchi, o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslasha oladigan o'qituvchini kasbiy malakali deyish mumkin.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi bevosita o'qituvchining kasbiy darajasiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qituvchining malakasi va kasbiy mahoratini, ya'ni uning kasbiy kompetensiyasini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarini samarali o'quv-tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shartlari – bu o'qituvchilarni pedagogik faoliyatning kasbiy muhim qadriyatlarini, bilimlari, ko'nikmalari va tajribalarini, kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zini o'zi tarbiyalashning oqilona usullarini o'zlashtirishga yo'naltiradigan maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayonining borishini, xususiyatlarini belgilovchi barqaror holatlar majmui.

Tadqiqot davomida biz oliy ta'lim tizimida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini belgilaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqladik: oliy harbiy ta'lim muassasalarining yoch o'qituvchilarini harbiy ta'limning o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga kasbiy moslashuvini tashkil etish; harbiy ta'limlar o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini

rivojlantirish modeli va texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish; oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini texnologik ta'minlash asosida olib borish.

2020-2023-yillarda Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti, O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti va O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida o'tkazilgan tajriba-tajriba ishlari natijasida aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish jarayonida o'qituvchilarga sezilarli ta'sir ko'rsatgani ma'lum bo'ldi.

Natijalarni tahlil qilish eksperimentda ishtirok etayotgan o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarining rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning sezilarli darajada yuqori darajada o'sishini ko'rsatdi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish bo'yicha mavjud tajriba, tajriba-sinov ish natijalarini tahlil qilish ushbu jarayonning muvaffaqiyatini belgilaydigan pedagogik sharoitlarni aniqlash va sinab ko'rish hamda ularni pedagogik talqin qilishga imkon berdi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish tizimi tashkiliy, texnologik va samaradorlik yo'nalishlarida amalga oshirilishi lozim.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha mavjud tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'plab yosh o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalar darajasini oshirish kerak, bu uni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Zamonaviy oliy harbiy ta'lim tizimida akmeologik yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning nazariy va pedagogik asoslari o'zgartirilmoqda. Oliy harbiy ta'limning pedagogik tizimini rivojlantirish o'quv jarayonining zamonaviy vositalari va usullari asosida harbiy an'alarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Mazkur sohadagi tub

o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan oliy harbiy ta'lim pedagogik tizimining muvaffaqiyatli rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi harbiy ta'lim strategiyasining qadriyat asoslariga mos keladi.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qonuni: <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi 2018 yil 9 yanvardagi O'RQ-458-son "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini to'g'risida"gi qonuni: <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonuni: <https://lex.uz>
4. <https://kun.uz/news/2024/01/02/shavkat-mirziyoev-qurolli-kuchlarni-rivojlantirish-masalalariga-bagishlangan-yigilish-otkazdi>.

*Mengniyozov G.A.*

*Student of the Academy of Banking and Finance*

*of the Republic of Uzbekistan*

## **IMPROVING ACCOUNTING OF TEACHING SERVICE COSTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

*Annotation: At the international level, a number of researches aimed at effective accounting of state higher education institutions and improvement of this accounting have been carried out. Issues of financing the higher education system of the USA, European countries, sources of financing higher education institutions and their share in total funds are gaining importance. In European countries, despite the policy of increasing fee-contract funds and income from patronage in higher education institutions in recent years, "in European higher education institutions, funding from the state budget still occupies a significant share, and budget funds make up about two-thirds of the total income".*

*Key words: education, financial sources.*

In the reforms carried out in the system of higher education in our country, special attention is paid to the improvement of the quality of education and the training of qualified specialists for economic sectors. In particular, forty state higher education institutions were given academic, organizational management and financial independence. This, in turn, gave these higher education institutions a number of powers, in particular, to make independent decisions regarding "the medium-term business plan of the higher education institution and approval of income and expenditure parameters, discussion of their implementation"[2]. Also, in the effective use of payment-contract funds in higher education institutions, it is necessary to carry out scientific research aimed at improving the procedure for

providing reliable information through the correct organization and management of their accounts.

The financial sources of higher education institutions are different according to the form of ownership and organizational-legal basis, and the basis of financial sources of higher education institutions with financial independence is formed by payment-contract funds. If we study the normative legal documents of higher education institutions' financial provision, including the payment-contract form of funds, it becomes necessary to study the foundations of formation, spending, organization, maintenance, and reporting of funds [4].

By 2023, branches of 17 state higher education institutions operating in our republic have been transformed into institutes, 10 institutes into universities, and 10 higher education institutions have been transformed. By 2023, the number of students will exceed 1,300,000, which is 42 percent of all applicants[3]. These reforms also affected the higher education financing system. Based on the analysis, we can say that the amount of funds allocated to the republic's higher education institutions in 2019-2023 is only increasing.

The main part of the financial support of higher education institutions is made up of extra-budgetary funds, i.e. payment-contract funds. Our research has shown that in the last five years, market mechanisms are gradually being introduced in the process of financing the higher education system. Adoption of the concept of development of the system of higher education of the Republic of Uzbekistan until 2030 is a sign of the beginning of a new stage of development of higher education. If we analyze the current state of financing sources of higher education institutions (Table 1).

**Table 1**

**Periodic changes in the costs of HEI funding sources (percentage)<sup>1</sup>**

<b>Higher educational institutions</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>
Financially independent institutions of higher education	86,3	79,5	90,3	85,2	86,4
Institutions of higher education without financial independence	74,0	76,8	75	78,3	70,4

As can be seen from the above table, the periodical change of incomes and costs of the sources of funding of HEIs is shown. In the state higher education institution granted financial independence, the main place is occupied by the payment-contract funds of education in the structure of expenses on the sources of financing.

The calculation and payment of the funds of the payment-contract form of training in higher education institutions are carried out separately for each funding source. We think that it is appropriate to divide them into several components by analyzing the costs of the payment-contract form of education. This income includes "Funds received from the payment-contract form of education", "Funds received from the increased payment-contract form", "Funds received from payment-contract funds based on the state order", "Funds received from students' payments for academic debt from subjects" is available. There is a need to define working accounts in the accounting policy of the higher education institution in order to ensure that the receipts of the payment-contract form of education in higher education institutions are spent in their own direction and reflected in the account [5].

It is necessary to implement the following on the basis of the analysis of the costs of payment-contract funds in higher education institutions and ways to improve the current state of their accounting.

---

<sup>1</sup>It was prepared based on the information of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

In the contract made on the basis of the payment-contract form of training, it is necessary to recognize as income the current part of the income received during the performance of the training service during the period of its performance. Because, students are students at their own discretion as part of the revenue for the period in which the teaching service is not provided and refunds in case of dismissal sits. In this case, the refund will be made at the expense of income reduction. This causes a number of problems in the account.

Actual expenses incurred in higher education institutions based on funds from settlements with students are included in 730100 - "Actual expenses incurred at the expense of receipts from the payment-contract form of education", 730200 - "Actual expenses incurred at the expense of receipts from the increased payment-contract form", 730300 - "Actual expenses incurred at the expense of receipts from the form of payment-contract based on the state order", 730400 - "Actual expenses incurred at the expense of funds received from academic indebtedness of subjects" accounting in working accounts.

### REFERENCES:

1. European Tertiary Education Register ETER №2/2019 y. from the analytical database
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги ПҚ-61-сон «Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори
3. Абдужалилова Д.А. Олий таълим муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шакли маблағлари ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: 2024. - 58 б.
4. Ostonokulov, A. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions. E3S Web Conf. Volume 296, 2021. In *1st International Conference on Environmental Sustainability Management and Green Technologies (ESMGT 2021)*. <https://doi.org/10.1051/e3s/202129601010>

*org/10.1051/e3sconf/202129606029.*

5. Ostonokulov Azamat Abdukarimovich. (2023). Audit inspections of state purchases and contracts signed on the basis of tender in budgetary organizations. *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 2(2), 99–112. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/1134>

WORDLY  
KNOWLEDGE

*Nazarova S.A.*

*The teacher of a boarding school  
specialized in the art of public charity*

*Nazarov F.A.*

*Teacher of the Department of Music Education  
Termiz State University*

## ADVANTAGES OF MUTUAL INTEGRATION OF FOREIGN LANGUAGE SUBJECTS IN MUSIC LESSONS

**Annotation:** This article examines the advantages of mutually integrating foreign language subjects into music lessons, highlighting how this interdisciplinary approach enhances both language acquisition and musical education. By incorporating foreign language content into music lessons, students can develop linguistic skills such as vocabulary, pronunciation, and cultural awareness in a more engaging and memorable way. Conversely, integrating music into language learning enriches the learning experience by using rhythm, melody, and lyrics to reinforce language concepts. This mutual integration fosters a holistic educational environment where students benefit from the cognitive, emotional, and cultural connections between music and language.

**Keywords:** language phonetics, pronunciation improvement, intonation practice, music in language learning, phonetic accuracy, auditory discrimination, singing exercises, phonetic drills, listening activities, accent development, learner motivation, music-based learning, foreign language acquisition, engaging language instruction, music and pronunciation.

In today's educational landscape, the integration of different subjects to create a more holistic learning experience is gaining momentum. One particularly effective approach is the mutual integration of foreign language subjects into music lessons. This interdisciplinary method leverages the natural connection

between language and music, providing a dynamic and engaging way to enhance both linguistic and musical skills. This article explores the advantages of this integration, highlighting how it can enrich students' educational experiences and foster deeper learning.

Integrating foreign language subjects into music lessons allows students to learn and reinforce vocabulary and grammar in a context that is both meaningful and memorable. For example, when students learn songs in a foreign language, they naturally acquire new words and phrases as they sing. The repetitive nature of music helps to cement these language elements in students' memories, making it easier for them to recall and use them in other contexts.

Music is an effective tool for teaching pronunciation and intonation, two critical aspects of language learning that can be challenging for students. Singing in a foreign language allows students to practice the rhythm, stress, and intonation patterns that are often difficult to master through traditional language instruction. The melodic structure of music mirrors the natural flow of spoken language, making it an ideal medium for practicing these skills.

The intersection of music and language has long fascinated educators and researchers alike. Both are forms of communication, deeply rooted in cultural expression and human connection. Teaching foreign languages in music classes is a concept that bridges these two expressive mediums, offering an innovative approach to language acquisition. This method leverages the natural rhythm, melody, and emotional resonance of music to create an engaging and effective learning environment for students. Language and music share several cognitive and neurological processes. Both require the ability to recognize and reproduce patterns, understand abstract symbols, and develop memory skills. This synergy creates a fertile ground for language acquisition through music.

Music enhances phonetic awareness, a critical aspect of learning a new language. The repetitive nature of songs helps students internalize the sounds of

a foreign language. Melodies and rhythms make it easier for students to remember pronunciation and intonation patterns.

Songs are often rich in vocabulary and grammatical structures. When students sing in a foreign language, they naturally learn new words and phrases within a contextual framework. This contextual learning is more effective than rote memorization, as it connects language with meaning.

Music is inherently emotional, which can make language learning more meaningful and memorable. Songs often tell stories or convey emotions that resonate with students, helping them to connect with the language on a deeper level.

Incorporating songs in the foreign language being taught is one of the most straightforward methods. Teachers can select songs that are culturally relevant and rich in language content. By learning and performing these songs, students not only practice pronunciation and vocabulary but also gain cultural insights. Teachers can engage students in activities that involve analyzing and translating song lyrics. This exercise helps students understand the nuances of the language and its cultural context. It also encourages critical thinking and discussion about the meanings behind the words. Encouraging students to create their own songs in the foreign language fosters creativity and deeper language learning. This process requires students to apply their knowledge of vocabulary, grammar, and pronunciation in a fun and engaging way. It also allows them to express their thoughts and emotions in the new language. Music often goes hand in hand with movement. By integrating dance or movement activities with foreign language songs, teachers can make the learning experience more dynamic and memorable. This multisensory approach can be particularly beneficial for younger learners, who often learn best through active participation. Teachers can design projects that explore the musical traditions of different cultures where the target language is spoken. Students can research and present on various musical genres,

instruments, and traditions, all while practicing the language. This approach not only enhances language skills but also broadens students' cultural horizons.

Music aids memory retention, making it easier for students to remember words, phrases, and grammatical structures. The repetitive nature of music, combined with its emotional impact, helps reinforce language learning. Music is universally appealing, making language learning more enjoyable and less daunting. Students are often more motivated to learn when the material is presented in a fun and engaging way.

Music is a gateway to culture. By learning songs in a foreign language, students gain insight into the cultural context of the language. This cultural connection can deepen their interest in the language and its speakers. The rhythmic and melodic aspects of music can help students improve their pronunciation and intonation in a foreign language. Singing allows for repeated practice of sounds and phrases, leading to greater fluency. While the benefits of integrating foreign language teaching in music classes are clear, there are also challenges to consider. Not all students may feel comfortable singing or performing in front of others, which can affect their participation. Teachers must create a supportive and inclusive environment to encourage all students to engage with the material.

### REFERENCES

1. Patel, A. D. (2008). *Musiqa, til va miya*. Oksford Universiteti Matbuoti: Oksford, Nyu-York. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 11 (2023) / ISSN 2181-1415 209
2. Besedova, P. (2016). *Musiqa chet tillarini o‘qitishda madaniyatlararo vosita sifatida*. In: *Yevropa Ijtimoiy va xulq-atvor fanlari materiallari*
3. Murphey, T. (1990). *Qo‘shiq mening boshimga tushdi hodisa: laboratoriyadagi ohangdor dinmi? Tizim*
- воспитание здорового и развитого ребенка;
- пробуждение у ребенка дошкольного возраста стремления к получению знаний;
- раскрыть способности ребенка дошкольного возраста;
- подготовка ребенка дошкольного возраста к систематическому педагогическому процессу.

Виды дошкольного образования по направлениям :

- дошкольные образовательные организации общего типа ;
- многопрофильная специализированная дошкольная образовательная организация (для обучения детей с физическими или умственными недостатками) [ **Error! Reference source not found.;**

- МТТ с инклюзивными группами ( обучение детей с учетом их особых **Error! Reference source not found.;**)

- МТТ комбинированного типа (для совместного обучения детей с физическими и умственными недостатками и детей без нарушений развития в отдельных и инклюзивных группах).

Дошкольная образовательная организация **Error! Reference source not found.** Содержание образования в дошкольных образовательных организациях определяется Государственной учебной программой «Шк qadam» [**Error! Reference source not found.**]. Дошкольная образовательная организация имеет право использовать дополнительные образовательные программы.

- Порядок работы дошкольной образовательной организации и продолжительность пребывания в ней детей определяются уставом дошкольной образовательной организации и решением учредителя.

- Обучение детей в организациях дошкольного образования осуществляется на государственном языке и других языках в соответствии с Законом Республики Узбекистан «О государственном языке».

- организация питания детей дошкольного возраста возлагается на организацию дошкольного образования и осуществляется в соответствии с санитарными правилами и нормами, утвержденными в Республике Узбекистан .

- дошкольного возраста оказывают государственные медицинские работники и за соблюдение режима и качества несут ответственность медицинские работники органов здравоохранения, прикрепленных к организации дошкольного образования.

- медицинских работников возложен на местные органы здравоохранения. В дошкольной образовательной организации создается помещение и соответствующие условия для работы медицинского персонала.

## НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ

- работники дошкольной образовательной организации в штате проходят бесплатные медицинские осмотры в органах здравоохранения, расходы на которые определяются в рамках государственных ассигнований.

- Порядок организации охраны жизни и здоровья детей в дошкольных образовательных организациях определяется Министерством дошкольного и школьного образования совместно с Министерством здравоохранения Республики Узбекистан.

- В целях выполнения целей и задач, определенных в ее уставе, дошкольная образовательная организация имеет право оказывать дополнительные платные образовательные услуги помимо основных образовательных программ с учетом потребностей семьи на основании договора, заключенного с родителями. Платные образовательные услуги не могут предоставляться вместо и в рамках основной образовательной деятельности, финансируемой учредителем. На сегодняшний день и реализуется 65 нормативно-правовых документов, определяющих долгосрочную и краткосрочную перспективы развития системы. Принят Закон Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании», регулирующий качество образования дошкольного образования и воспитания, <sup>2</sup>постановление Кабинета Министров «Об утверждении государственного стандарта дошкольного образования и воспитания». В нашей стране охват детей 3-7 лет дошкольным образованием увеличился с 27% до 75 %, в результате развития частного сектора количество организаций увеличилось почти в три раза. Кроме того, в последние годы в Узбекистане развиты альтернативные формы дошкольного образования, внедрены мобильные и модульные дошкольные образовательные организации, в частности, реализован мобильный проект «Аклвой»,

---

<sup>2</sup>Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 декабря 2020 года № 802 «Об утверждении государственного стандарта дошкольного образования и обучения». <https://lex.uz/docs/-5179335>

которым охвачено 2000 детей из 40 микрорайонов отдаленных районов. районы.

Включение в мониторинг параметров качества, связанных с контролем и уходом за детьми, с одной стороны, выводит его за пределы сферы образования, определенной действующими нормативными документами, с другой стороны, свидетельствует о создании Механизм комплексной оценки качества дошкольного образования и улучшения всестороннего развития детей, позволяет собрать мониторинговую базу.

Анализ международного опыта дошкольных образовательных организаций как образовательных учреждений показывает, что в процессе аккредитации осуществляется не только контроль качества и оценка, но и услуги по развитию образовательных организаций, помощь в разработке образовательных программ, подбор персонала. предлагается обучение. Оценка качества услуг, оказываемых дошкольными образовательными организациями, проводится с целью повышения их качества и приемлемости для населения.

Для объективной оценки качества деятельности дошкольной образовательной организации критерии и показатели оценки качества должны охватывать следующие области:

- **качество образовательного процесса:** взаимодействие педагогов и детей, образовательная деятельность в дошкольной образовательной организации, возможности эмоционального, социального и познавательного развития детей (картинки и картинки; поощрение использования речи в общении и восприятии, развивающие словарный запас, индивидуальность);
- **компоненты качества:** пространственные условия (пищевые продукты и условия их приема, условия отдыха и сна, гигиенические условия помещения, санитарно-профилактические нормы, , нормы


## НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ

безопасности), оборудование, мебель и учебные материалы, подготовка персонала, документация;

- **качество воспитания** : наличие образовательной программы в организации, состояние направлений воспитательной работы, прежде всего, приоритетных моделей в отношениях с детьми, родителями, другими представителями ;

- **сотрудничество с родителями:** взаимодействие с родителями, в частности, увеличение доли родителей, участвующих в оценке качества дошкольного образования (например, в процессе проведения опроса), а также выработка управленческих решений по повышению качества дошкольного образования, повышение квалификации кадров и помощь в профессиональном росте и т.д.;

Мониторинг качества образования в дошкольных образовательных организациях состоит из пяти компонентов (см. рисунок 1).



*Рисунок 1 . Структура мониторинга качества образования*

Таким образом, исходя из вышесказанного в Республике Узбекистан созданы все условия для предоставления качественной дошкольного воспитания качество образования дошкольного образования и воспитания

путём внедрения всех компонентов мониторинга качества образования в дошкольных образовательных организациях.

### **Использованные источники:**

1. Закон Республики Узбекистан, от 16.12.2019 г. № ЗРУ-595 «О дошкольном образовании и воспитании»
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 22.12.2020 г. № 802 «
3. «Об утверждении государственного стандарта дошкольного образования и воспитания»

# Развитие науки

WORDLY  
KNOWLEDGE

*Siddikov J.N.*

*Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti*

ONOMASTIK KO‘LAMDA QARSHI SHAHAR ERGONIMLARINING  
TUTGAN O‘RNI

*Annotatsiya.* Maqolada ijtimoiy hayotda juda ko‘p duch keladigan, onomastik ko‘lamda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan restoran, oshxona, kafe nomlari va ularning paydo bo‘lish sabablari, millat vakillari hayotidagi o‘rni, milliy qadriyatlarimizga har jihatdan mos keladigan, xalqimizning tarixi, tafakkuri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, maqsadlari va shu kabilar aks etgan – ergonimlarni tahlil qilish maqsad qilingan. Davr talabini, bugungi kundalik hayotimizni real aks ettiruvchi ergonimlarning ilmiy adabiyotlardagi tadqiqi haqida fikr yuritilgan. Qashqadaryo viloyati Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi restoran, oshxona, choyxona, ta‘lim muassasalari, apteka nomlari tahlilga tortilgan. Ergonimlarning leksik-semantik guruhi ajratib ko‘rsatilgan. Ergonimlarni shakllantirish haqida mulohazalar keltirilgan. Neymlarning shakllanishida manba til o‘zlashmalarining o‘rni hamda milliy nom tanlashning istiqbolli yo‘llari ergonimlar misolida tadqiq etilgan.

*Kalit so‘zlar:* tilshunoslik, onomastika, ergonim, antropoergonim, topoergonim, fitoergonim, zooergonim, ergonimlarning tarkibiy tahlili.

Siddikov J. N.

Doctoral student of Andijan State Institute of Languages

THE ROLE ERGONYMS OF THE KARSHI CITY IN ONOMASTIC  
SPHERE

*Abstract.* The article discusses the names of restaurants, cuisines, cafes that are common in public life and have their place even in onomastic terms. The reasons for the appearance of ergonyms, their place in the life of representatives of the nation, which correspond to national values and reflect the history,

*worldview, dreams and hopes of our people, are also analyzed. The study of ergonomics in the scientific literature is discussed, which realistically reflects the demands of the time and our daily lives. The names of restaurants, kitchens, tea houses, educational institutions, pharmacies in the cities of Karshi and Shakhrisabz of Kashkadarya region are analyzed. The lexico-semantic group of ergonyms is distinguished. Comments on the formation of ergonyms are given. Using the example of ergonyms, the role of mastering the source language in the formation of names and promising ways of choosing a national name are studied.*

**Keywords:** *linguistics, onomastics, proper name, ergonym, anthropoergonym, topoergonym, phytoergonym, zooergonym, analysis of the structure of ergonyms.*

**Kirish.** Bugun barcha sohalarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham tub islohotlar jarayoni sodir bo‘lmoqda. Jahon lingvistikasi ta’sirida o‘zbek tilshunosligiga 90-yillarning boshida kirib kelgan yangilanish shabadalari undagi qarashlar va yo‘nalishlarni batamom o‘zgartirib yubordi. An’anaviy tilshunoslikka parallel ravishda shakllangan va jadal rivojlanib borayotgan sistem-struktur yo‘nalish o‘zbek tili imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish, uning barcha sathlari bo‘yicha keng ko‘lamda mukammal tadqiqotlar olib borish uchun katta yo‘l ochib berdi. Mazkur yo‘nalish asoschisi Ferdinand de Sossyurning fikricha, til muayyan bir ijtimoiy jamoaga mansub bo‘lgan kishilarning nutqiy amaliyoti orqali to‘plangan xazinadir. U belgilar sistemasidan iborat. Sistema yaxlit bir butunlik sifatida o‘zini tashkil etuvchi muayyan qismlardan tashkil topadi. Sistemada qismlararo hamda ularning butunlikka, butunlikning qismlarga nisbatan munosabatlari mavjud bo‘ladi. Hamma gap mana shu munosabatlar mohiyatini anglay olish va to‘g‘ri talqin qilishga borib taqaladi [1, 39]. Til murakkab, keng tarmoqli, o‘ziga xos sistema sifatida son-sanoqsiz qismlarga bo‘linib ketadi va har bir qism o‘zidan katta bo‘lakning ichiga zaruriy komponent sifatida kirib boradi. Tilning har bir bo‘lagi alohida, shu bilan

birga o‘zidan boshqa bo‘laklarning mavjud bo‘lishini taqazo etuvchi o‘ziga xos mustaqil komponent sanaladi. Ana shunday qismlardan birini leksik sathning ajralmas bir bo‘lagi sanalgan onomastika tashkil etadi. Onomastika o‘z navbatida yuzdan ortiq yo‘nalishlarga bo‘linib ketadi va har bir yo‘nalish noyob, qaytarilmas nomlarni o‘z ichiga oladi. Ana shunday yo‘nalishlardan birini korxonalar, tashkilot, muassasa nomlari tashkil etadi. Onomastika tilshunoslikda atoqli otlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish maqsadida paydo bo‘lgan istiqbolli yo‘nalishdir. Hozirda mazkur termin: 1. Ma’lum bir tildagi barcha atoqli otlarning yig‘indisini. 2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasini [2, 78; 60; 96], tildagi atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lishi, motivatsiya asoslari, semantikasi va lisoniy strukturasi o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi ma’nosida qo‘llaniladi [3, 264]. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da onomastika so‘ziga shunday izoh berilgan: ONOMASTIKA [yunoncha: onomastike – nomlash, nom qo‘yish san’ati] 1 Tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganadigan bo‘limi. 2 Muayyan tilda mavjud bo‘lgan barcha atoqli otlar majmui [4, 129-130]. Ko‘rinib turibdiki, lug‘atda onomastika leksemasiga puxta izoh berilgan. Boisi onomastika o‘zbek tilshunosligida boshqa sohalarga qaraganda ancha keng va mukammal ishlangan yo‘nalishlardan sanaladi. O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab A.V. Superanskaya, N.V. Podolskaya [5, 144-146; 96], E. Begmatov, Y. Avliyoqulov, N. Uluqov [6, 17-21; 33-39; 15-18], A.M. Gurbanov [7, 249-271], R.S. Nuriddinova [8, 5-11] va boshqa olimlar tomonidan onomastik nomlarning 70ga yaqin turlari tadqiq etilgan bo‘lsa-da, mavzu doirasidagi tadqiqotlar jarayoni oxiriga yetgani yo‘q. Bugunga kelib onimlarning miqdori 100dan oshib ketdi [9]. Dunyo hamjamiyatining rivoji, millatlararo va davlatlararo munosabatlarning globallashtirish sharoitida yangi bosqichga ko‘tarilishi milliy tillarda atoqli otlarning yangidan-yangi ko‘rinishlari paydo bo‘lishi va taraqqiy etishiga sababchi bo‘lmoqda. Qolaversa, E. Begmatovning fikricha, tilshunoslikda atoqli otlar kam o‘rganilgan. Mavjud

leksikologiya, grammatikada, imlo qoidalari va lugatlarda, odatda, atoqli otlarning to‘rt-besh tipigina keltiriladi. Turli lisoniy xususiyatlar tahlil qilinganida atoqli ot materiallari chetlab o‘tiladi. Atoqli otlarga bunday munosabatning o‘ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Atoqli otlarning mohiyati va lisoniy vazifalarini to‘g‘ri belgilash va asoslash ko‘p jihatdan konkret tillar va umuman tillardagi atoqli ot materiallarini maksimum to‘plash, bu nomlarning miqdoriy hajmi, til lug‘aviy tarkibida tutgan o‘rni, salmog‘ini aniqlash, xuddi turdosh otlardagi kabi atoqli ot tiplarining amalda tarqalish chegaralarini aniqlashga bog‘liq [10, 33-34].

**Asosiy qism.** Anglashiladiki, atoqli otlar bilan bog‘liq muammolar tilimizda yetarlicha. Ayniqsa, onomastik ko‘lam va uning zamonaviy yo‘nalishlari, jumladan, shaharlashish jarayonlarining bugungi shiddati natijasida paydo bo‘lgan tilshunoslikning yangi sohasi – urbanolingvistika va uning tarkibiga kirib ketuvchi ergonimlar o‘zbek tilida endigina o‘rganila boshlandi [11, 47]. Holbuki, ijtimoiy hayotimizda muhim o‘rin tutuvchi, kommunikativ jarayonlarda eng faol sanalgan korxonalar, tashkilot, muassasa va shu kabilarning nomlari – ergonimlar o‘zbek tilining eng faol, boy va rangin qatlamini tashkil etadi. Ular xalqimiz hayotining o‘ziga xos ko‘zgusi, korxonalar va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan hamyurtlarimizning dunyoqarashi, tafakkuri, intilishlarining yorqin ifodasi, davr ko‘rsatkichi sifatida tilimizda muqim o‘rin tutib turibdi. Mamlakatimizning barcha mintaqalarida bo‘lgani kabi Qashqadaryoda ham onomastik jarayonlar faol kechmoqda. Ishlab chiqarishning keng ko‘lamda rivojlanishi, sohaga chet el investitsiyasiniing kirib kelishi, xususiy korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning tashkil etilishi, qo‘shma korxonalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi viloyatdagi ergonimlar tarkibini ham miqdor, ham sifat jihatidan keskin o‘zgarishiga olib keldi. Fikrimizni isbotlash maqsadida Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi restoran, oshxona, choyxona, ta‘lim muassasalari, apteka nomlariga diqqat qilib ko‘rdik. Mazkur nomlarni hosil qilinishida uch xil usul ustuvor sanaladi.

Milliy qadriyatlar, xalqona urf-odatlar, tariximiz bilan bogʻliq holatda yaratilgan ergonimlar. Bularga «Bahor», «Diydor», «Dunyo», «Yogʻdu», «Marvarid», «Mehmon», «Omad», «Paxtazor», «Tanho», «Turon», «Chinor», «Chorsu», «Shabada», «Shinam» (Qarshi), «Nur», «Oʻzbekim», «Chorbogʻ», «Oʻrikzor», «Soyabon», «Maysa» (Shahrisabz) kabi restoran, oshxona, kafe bilan bogʻliq ergonimlarni misol qilib olishimiz mumkin. Oʻzbek tilida bu kabi kichik koʻlamdagi onomastik nomlar ilmiy jihatdan deyarli tadqiq etilmagan. Onomastik koʻlam, jumladan, ergonimlar rus tilida nisbatan keng ishlangan sohalardan sanaladi. 2000-yildan hozirga qadar rus tilida ergonimlarga bagʻishlangan 50dan ortiq dissertatsiyalar himoya qilindi. Ular ichida «Ресторанный нейминг: структурно-семантический и коммуникативно прагматический аспекты» mavzusida tadqiqot olib borgan Xoang Txi Xong Chang Moskva shahridagi 7000 dan ortiq umumiy ovqatlanish shoxobchalari: restoran, kafe, oshxona va shu kabilarni bir qancha aspektlarda tahlilga tortib koʻrgan. Ularni antroneyming («Shashlikoff», «Baron de Makaron», «Pikasso», «Pan Smetan», «Gavrosh»), toponeyming («A la Traktir», «Tiflisskiy dvorik», «The most», «Lagmannaya»), naturaneyming («Panda», «Bizon», «Zebra», «Bambuk i Kaktus»), madaniy neyming («Tixiy Don, «Pechki-Lavochki), gastroneyming («Schi», «Ayran», «Mangal», «Kvas») kabi leksik-semantik guruhlariga boʻladi. Restoran nomlarini toporestonimlar, antroporestonimlar, ideorestonimlar, kripto-restoronimlar, teorestonimlar, geortorestonimlar, kosmorestonimlardan iborat boʻlishini koʻrsatib bergan [12, 11-14]. Aytilganlar Qashqadaryo ergonimlariga ham xos xususiyatlar sanaladi. Ularni quyidagi leksik-semantik guruhlariga ajratish mumkin:

1. Antropoergonimlar. Bunda asosiy eʼtibor shu joydan yetishib chiqqan mashhur kishilarning nasabiga va Qashqadaryoda yashab oʻtgan eʼtiborli shaxslar nomiga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Masalan: a) tarixiy shaxslar nomi asosida yasalgan antropoergonimlar: «Temirxon, «Ulugʻbek oʻquv markazi» va h.k.; b) alohida shaxslar nomi bilan atalgan antropoergonimlar: «Haydar», «Abdukarim»,

«Bahrom bobo», «Berdi bobo», «Hamro bobo», «Jamol ota», «Amir ota», «Muhammad ota» va h.k.

2. Topoergonimlar. Ma'lumki, toponimlar muayyan joyning tarixi, o'ziga xos geografik, milliy-mental xususiyatlarini ifoda etuvchi leksik qatlam sifatida boshqa til birliklaridan keskin ajralib turadi. Bu borada mamlakatimizning ko'hna zaminlaridan biri sanalgan Qashqadaryo viloyati toponimlari alohida e'tiborga molik. Nasaf, Kesh, Navkat, G'uzor, Koson, Chiroqchi kabi joy nomlari o'zining qadimiyligi, boy tarixi bilan O'rta Osiyodagi manaman degan joy nomlari bilan bellashishi mumkin. Onomastik tafakkur yangi tashkil etilgan korxonalar, tashkilot, muassasalarga nom berishda yuqoridagi kabi tarixiy nomlarni asos qilib solish imkonini berdi. Bunga «Ko'hna Kesh», «Kesh», «Turon», «Buyuk Turon», «Oqsaroy» va h.k. nomlarni misol qilib olishimiz mumkin.

3. Fitoergonimlar: Qashqadaryo ergonimlari tarkibida «Majnunatol», «Maysa», «Chorbog'», «O'rikzor», «Chinor», «Limon kafe» kabi daraxt va o'simlik nomlariga nisbatan yasalgan nomlar ham salmoqli ulushga ega.

4. Zooergonimlar: Bu guruhdagi ergonimlar nisbatan kam. «Humo» nomi uchradi.

5. Anemoneergonimlar: Tabiat hodisalari va fasllarga nisbat berib qo'yilgan «Bahor», «Yog'du», «Shabada», «Nur», «Shabnam» singari ergonimlar mazkur qatordan joy olgan. Yuqoridagilar bilan birga Qashqadaryo ergonimlar ichida «Marvarid», «Rohat», «Soyabon», «Sevimli», «Poytaxt» ko'rnishidagi narsalar, buyum, belgi, joyga nisbat berib qo'yilgan ikkilamchi ergonimlar ham uchraydi. Joylarga nom berishning eng muhim omillardan birini har doim ichki resurslar tashkil qilib kelgan, lekin Qashqadaryo ergonimlar ichida o'zbek tili qonun qoidalariga mos tushmaydigan xorijiy leksemalar ko'p uchraydi. Ularni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin:

1. Ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri qabul qilingan ergonimlar. Ularning eng ko'pi mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini nomida uchraydi. Masalan: «Proton», «BePro English», «Algoritm Academy», «Elegant»,

«Izgara», «Prins», «Len effekt farmed», «Farma house.uz» va hokazo. Ular ichida «Global Educatoin in Karshi», «Qazili Hot Dog», «Papa Lavash» kabi aralash usulda yasalgan ergonimlar ham borki, bunday holat o‘zbek tilining hech qaysi qoidasiga mos kelmaydi. E’tiborimizni «Versal» ergonimiga qarataylik. Barcha shaharlarimizda shu nomdagi restoranlar mavjud. Aslida, mazkur so‘z quyidagi ma’ nolarni anglatadi: «Versal» (Fransiyadagi shaharcha nomi), «Versal» (fransuz qirollarining qarorgohi, jahon ahamiyatiga ega turizm markazi), «Versal» (xalqaro shartnoma), «Versal» (Ivelin departamentidagi okrug), «Versal» (xalqaro shartnoma), «Versal» (1707-1909 yillarda Vladivostok shahrida qurilgan mehmonxona), «Versal» (Fransuz qirolli Ludvig XIVga bag‘ishlangan teleserial), «Versal» (Fransiz futbol klubi), «Versal» (Missuri shatatiga qarashli shaharcha) va h.k. Restoranlar binosining ichki va tashqi interyerlari «Versal» qirollik saroyi uslubida ishlangani, devorlarga unga xos dabdabali bezaklar, naqshlar solingani uchun restoranlar shu nom bilan atalgan.

2. Rus tilidan olingan ergonimlar: «Опера», «Сказка», «Кафе рыбный ресторан», «Лимон кафе», «Аптека Здоровье», «Зелёная аптека» va h.k.

3. Arab tilidan olingan ergonimlar: «Iqro», «Al-Akbar», «Dubay» kabi.

Aptekalar nomini anglatuvchi ergonimlar ham davr talabini, bugungi kundalik hayotimizni real aks ettiruvchi leksik birliklar sifatida e’tiborga molik. Ularning viloyatdagi tahlili bizga qiziqarli ma’lumotlarni taqdim etdi. Ular ichida a) ikki asosli: «Asr dorixona», «Apteka Piramida», «Apteka makrofarm»; b) uch asosli: «Sherfarm set aptek», «Kelajak Fayz Med Farm»; c) to‘rt asosli: «Apteka vodiy Doston farm», «Apteka doktor Jo‘ra servis»; besh asosli: «Apteka Fayz Ramazon sharif», «Omad Rlyus Farm arzon apteka»; d) son ishtirokida yasalgan: «Apteka +03», «Apteka 36,6», «Apteka Quramax», «Apteka 24/7», «Apteka 24/farm; e) abbreviaturali: «Apteka OOO Akbarshoh», «Apteka A 5.uz», «Apteka s 45» ergonimlar mavjud. Ular ichida «Apteka Rauf ota» (antroponim), «Apteka Burj» (kosmonim), «Apteka Binafsha» (fitonim), «Ohumed» (zoonim) kabi rangin ergonimlarga ham duch kelinadi.

**Natijalar va muhokama.** Qashqadaryoda amalda qo‘llanayotgan korxonalar, tashkilot va muassasa nomlari o‘zining ko‘lami, qo‘llanish darajasi, ranginligi bilan alohida ajralib turadi. Ularda xalqimiz tarixi, xususan, mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari, orzu-umidlari, dunyoqarashi, bugungi turmush tarzi o‘zining yaqqol ifodasini topgan. Shu bilan birga ergonomiyalarni qo‘llashda turli xil turli xil yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. Ularda, albatta, ijobiy tomonlar ustuvor, lekin o‘zbek tili davlat tili sifatida tobora hayotimizdan chuqur o‘rin olib borayotgan, ona tilimizning taraqqiy etishi uchun davlatimiz rahbari va Hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlar eshigi ochib berilayotgan bir paytda korxonalar, tashkilot va muassasalarga qo‘yilayotgan nomlar kishini ajablantiradi. «Sohibqiron», «O‘zbekim», «Uchgumbaz», «Qorasaroy», «Shohsaroy», «Anhor», «Fayz», «Mehnatobod», «Orzu», «Sarbon», «O‘tov», «Yetti chinor», «Bir zumda», «Sadaf», «Qo‘rg‘on» kabi nomlar Qashqadaryoda qad ko‘tarayotgan muhtasham binolarimizga, biri-biridan ko‘rkam inshootlarimizga uzukka qo‘yilgan zumrad ko‘zdek mos tushadi, vohadagi ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarining tarannumi sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi, lekin «Bon Appetit», «Proton», «BePro English», «Algoritm Academy», «Ferdil», «Papa Lavash», «Elegant», «Izgara», «Prins», «Global Education in Karshi», «Qazili Hot Dog» kabi xorijiy tillardagi nomlardan ko‘r-ko‘rona ko‘chirilgan yoki ularga uyqash yaratilgan ergonomiyalar tilimizning bugungi darajasiga va millatning lisoniy ehtiyojlariga aslo mos tushmaydi. Ular o‘zbek tilini qashshoqlashtirish, siyqalashtirishga olib keladi. Holbuki, yurtimizda kechayotgan yangilanish, utsg‘ongish jarayonlarining oldingi saflarida turgan Qashqadaryo xalqiga ergonomiyalarga bu kabi munosabatda bo‘lish umuman yarashmaydi. Korxonalar, tashkilot va muassasalarga ona tilimiz qonun qoidalariga to‘g‘ri va muvofiq keladigan nomlarni berishni davrning o‘zi talab qilmoqda. Bu ishda xato qilishga sira haqimiz yo‘q.

**Xulosalar.** Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, onomastika fani o‘zining yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Korxonalar, tashkilot va muassasalarga shunchaki,

to'g'ri kelgan nomni qo'yish davri o'tdi. Bugun O'zbekiston Respublikasi dunyoga yuz ochmoqda, jamiyatimiz ochiq jamiyatga aylandi, xorijiy investitsiyalar, ular bilan birgalikda nom yaratish san'ati – neyning ham yurtimizga kirib keldi, ko'plab qo'shma korxonalar tashkil eitldi, mahsulotlarimiz dunyo bozorlarida sotilmoqda. Bularning barchasi puxta o'ylangan, milliy qadriyatlarimizga har jihatdan mos keladigan, xalqimizning tarixi, tafakkuri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, maqsadlari va shu kabilarni o'z ichiga olgan nomlarni yaratish va amalga tatbiq etishni talab etmoqda. Bu borada yurtimizda, qolaversa, Qashqadaryoda, yetarlicha tajriba bor. Birinchi galda tilimizning ichki imkoniyatlardan foydalangan holda bozor iqtisodiyotiga mos keladigan, zamonaviy, sodda, jarangdor, eshitganda har qanday insonni mahliyo etib qo'yadigan milliy nomlarni yaratishimiz shart. Ikkinchidan, xorijdan olayotgan nomlarimiz e'tirozlarga sababchi bo'lmasligi kerak. Xalqaro miqyosda brend nomlarga aylangan «Adidas», «Ikea», «Yahoo», «Coso-Cola», «Nestle», «Samsung» kabi nomlarga hech qanday e'tirozimiz yo'q, biroq «Lag'mon hauzu», «Shahrisabz burger», «Kesh food», «Umka minutka», «Malika burger» kabi Zero, ulug'lar aytganidek: «Yaxshi nom – yurt chiroyi». Yurtimizning chiroyiga, tilimizga, undagi inju so'zlarga aslo ko'z tegmasin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики//Труды по общему языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977. – С. 39.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2002. – 78-б.; Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 60.; Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 96.
3. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007. – 129-130 бетлар.
5. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 144-145; Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 96.
6. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси//Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. – 3-сон. – 17-21 бетлар; Ўша муаллифлар. Ўзбекономастикасининг макро кўлами//Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. –5-сон. – 33 39 бетлар; Ўша муаллифлар. Ўзбек ономастикасининг микрокўлами//Ўзбек тили ва адабиёти. – 2008 йил. – 1-сон. – 15-18 б. ва бошқалар.
7. Гурбанов А. М. Азербайжан эдэби дили. – Баку: Маориф, 1985. – 249 272 б.
8. Нуриддинова Р.С. Ўзбек ономастик терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. ... автореф. – Тошкент, 2005. 5-11 б.
9. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 33-34 б.
10. Saparniyozova M. O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi. – Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 47 b.; Saparniyazova M., O‘rozov J. O‘zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik me‘yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.
11. Хоанг Тхи Хонг Чанг. Ресторанный нейминг: структурно семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Автореф. канд. дисс. ... филол. наук. – Томск, 2018. С. 11-14.



WORDLY  
KNOWLEDGE

*Tojiboyeva M.R.*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi*

## ILMIY TADQIQ JARAYONINING MOHIYATI

*Annotatsiya: ushbu maqolada ilmiy tadqiqot jarayonining mohiyatini yoritishga atroflicha yondashildi, uning ta'rifini shakllantirgan 6ta muhim jihatning mazmuni to'liq yoritildi.*

*Kalit so'zlar: ilmiy tadqiq jarayoni, obyektiv hodisa, subyektiv xulosa, metodlar, aqliy faoliyat, sistemali, stixiyali.*

*Tojiboyeva M.R.*

*Navoi State Pedagogical Institute  
Student of the 4th stage of the Faculty  
of Uzbek language and literature*

## THE ESSENCE OF THE SCIENTIFIC RESEARCH PROCESS

*Annotation: in this article, the coverage of the essence of the scientific research process was approached in detail, the content of 6 important aspects that formed its definition was fully covered.*

*Keywords: scientific research process, objective phenomenon, subjective conclusion, methods, mental activity, systemic, stichial.*

Har bir talaba, albatta, fan asoslarini egallash, bilim va axborotni o'zlashtirish bilan birga o'zlari ham ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanib borishlari kerak. Zero, bo'lajak mutaxassis har bir fanni o'zlashtirgan va undagi muommalarni yechish bilan shug'ullanadigan raqobatbardosh kadr bo'lib yetilmog'i lozimdir. Chunki, oliygozlarda ta'lim olayotgan talaba kelajakda o'z kasbining mutaxassisi bo'lishi bilan birgalikda ilmiy tadqiqot bilan ham shug'ullanishi uchun salohiyatga ega bo'lishi darkor. Har bir talaba 1-kursga

kirgandan boshlab ilmiy anjumanlarda, ilmiy seminarlarda ishtirok etishi kerak, fanning ma'lum bir sohalari bo'yicha muommalarni aniqlab, bu muommalarning yechimiga doir o'z fikr va mulohazalarini bayon etishga, mustaqil holda ilmiy tadqiqot olib borishga, ijodiy izlanishga va ijod mahsulini ommaga taqdim etishga tayyorlanib borishi ham kerak bo'ladi. Ana shuning uchun oliygohlarda "Ilmiy ish asoslari" fani talabalarda mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ko'mak beradigan o'quv predmeti sifatida ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Albatta, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish har bir kadrning ixtiyotiy ishi, majburiy emas. Ushbu maqolada biz "Ilmiy tadqiq nima?", - degan masala bo'yicha atroflicha yondashamiz.

*Ilmiy tadqiq – obyektiv narsa-hodisa haqida maqsadli ravishda (1) maxsus metodlar yordamida (2) tizimli (3) va subyektiv xulosa (4) hosil qiluvchi insoniy (5) aqliy (6) faoliyat.* Bu yerda 6ta muhim nuqtaga alohida e'tibor qaratishingiz lozim. Birinchidan, *maqsadli ravishda* degan tayanch tushuncha. Har qanday ilmiy tadqiqot biror maqsadni ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Inson ilmiy tadqiqot olib bormasdan ham borliqni bilib, o'rganib boraverishi mumkin. Masalan, siz boshqa bir o'lkaga, boshqa bir mamlakatga borib qoldingiz va atrofni kuzatasiz va u yerdagi juda ko'p yangi narsalarni bilib boraverasiz. Ana u yerda siz maqsadli ravishda emas, stixiyali ravishda, ongsiz ravishda, borliq hodisalarini o'rganib borasiz. Ilmiy tadqiqot esa maqsadli ravishda amalga oshiriladi. Insonning bilish jarayoni ongli va ongsiz, maqsadli va maqsadsiz ravishda bo'lishi mumkin. Ilmiy tadqiqotning o'ziga xos asosiy xususiyati uning maqsadli ravishda amalga oshirilishida. Bu jarayon *maxsus ilmiy metodlar yordamida* amalga oshiriladi. Ilmiy bilishdan tashqari holatlarda maxsus ilmiy metodlar qo'llaniladi. Jumladan, kuzatish, umumlashtirish, xulosalash kabilar insonning bilish faoliyatiga xos bo'lgan umumiy metodlardir. Lekin maxsus ilmiy metodlar qo'llanilmaydi. Ilmiy bilish jarayonida, ilmiy tadqiq jarayonida esa maxsus ilmiy metodlardan foydalaniladi. Bu ilmiy tadqiqning ikkinchi muhim xususiyati. Uchinchidan, ilmiy bilish, ilmiy tadqiq *tizimli ravishda* amalga

oshiriladi. Uzuq-yuluq emas, tartibsiz emas, pala-partish emas tizimli – sistemali ravishda amalga oshiriladi, ya'ni ma'lum bir ketma-ketlikdagi topshiriqlarni navbatma-navbat bajarish asosida borliq hodisasi haqida ilmiy bilim hosil qilinadi. Masalan, yo'lda harakatlanayotgan avtomobillarni kuzatib, siz ayrim kishilar, ayrim haydovchilar yo'l harakati qoidalariga rioya qilayotganligini, ayrimlari esa yo'l harakati qoidalariga rioya qilmasdan palapartish mashina haydayotganligini va boshqa yo'lovchilarning ham ana shunday ba'zilarining rioya qilmasligini, yoshi kattalarning ko'proq rioya qilib, yoshlarning qoidalarga rioya etmayotganligini kuzatib o'tirasiz. Lekin bu tizimli emas, siz bir paytning o'zida yo'l harakatini kuzatasiz. Ma'lum bir soniyalar o'tgandan keyin ob-havoni kuzatasiz. Yana bir ma'lum vaqtdan so'ng telefonda gaplashasiz, ko'ryapsizmi, sizning kuzatishlaringiz tizimli ravishda amalga oshirilmayapti. Chunki, u ilmiy tadqiq jarayoni emas, u shunchaki kundalik borliqni bilish jarayoni bo'lib, stixiyali ravishda – tizimsiz amalga oshiriladi va ilmiy tadqiqning yana bir muhim jihati obyektiv narsa-hodisa haqida, ya'ni bizdan tashqaridagi bizning ongimizga, tafakkurimizga bog'liq bo'lmagan narsa-hodisalarni biz obyektiv narsa-hodisa deymiz. Ana shu obyektiv narsa-hodisa haqida *subyektiv xulosa* chiqaramiz. Ya'ni borliq hodisalarini o'z tafakkurimizda tizimli ravishda maxsus metodlar yordamida qayta ishlab, subyektiv xulosa chiqaramiz. Shuning uchun biror obyektiv narsa-hodisa haqida o'n kishi bitta maqsadda ilmiy tadqiqot olib borsa, turli-tuman xulosalarga kelishlari mumkin. Bu ilmiy tadqiq jarayonining subyektiv hodisa ekanligidan dalolat. Albatta, ilmiy haqiqat degan narsa bor. Xulosa chiqarayotgan kishilarning umumiy fikrlari hamma uchun, lekin ular o'zlari tavsiflayotgan obyektiv narsa-hodisaning turli tomonlariga, turli jihatlariga turli metod, metodologik asoslar yordamida munosabatda bo'layotganligi uchun ularning xulosalarida ham farqli jihatlar umumiy jihatlar bilan bir qatorda mavjud. Ilmiy tadqiq bu - *insoniy faoliyat*. Insoniy faoliyatlar juda ko'p: insoniy nutqiy faoliyat, insoniy jismoniy faoliyat, insoniy ruhiy faoliyat va hokazo. Ana shular sirasida *aqliy faoliyat* ham alohida ajralib turadi. Ana shu oltita tayanch tushuncha

ilmiy tadqiq degan kategoriyaning mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida aytdik, ilmiy tadqiqda obyektivlik va subyektivlik qorishgan holda bo‘ladi. Bir olim aytgan ekanki, “Isaak Nyuton yapon millatiga mansub bo‘lganda, uning butun olam tortishish qonuni bugungidek bo‘lmas edi”. Umuman olganda, butun olam tortishish qonunini kashf qilgan kishi Isaak Nyutondan boshqa kishi bo‘lganda ham xulosalar uning xulosalaridan birmuncha farq qilgan bo‘lardir. Shuning uchun ilmiy tadqiq – obyektiv borliqning shaxs ongidagi subyektiv in’ikosi (aksi, ifodasi, tajallisi) deyish to‘g‘ri. Shu sababli ko‘p hollarda olimlar bir-biri bilan ma’lum masalalar ustida bir fikrga kela olishmaydi, hamfikr bo‘la olmaydilar. Buning barchasining sababi obyektiv borliq hodisasini har bir kishi har xil tafakkur tarzida, har xil metodlar yordamida, har xil maqsad va nigoh asosida turlicha ko‘rishidan dalolat beradi. Har qanday ilmiy tadqiqda obyektivlik va subyektivlik qorishgan bo‘ladi. Qaysi tadqiqda obyektiv borliq va subyektiv in’ikos o‘rtasida muvofiqlik ko‘proq bo‘lsa, ana shu tadqiqotda ilmiy xolislik va ilmiy haqiqat darajasi boshqalarga nisbatan ustuvorroq bo‘ladi. Shuning uchun olimlardan subyektivizmga berilmaslik, imkon qadar narsa va hodisalarga obyektiv munosabatda bo‘lish talab etiladi. Biz qanchalik obyektiv borliq hodisalarini xolis va obyektiv – bor holicha tasvirlashga harakat qilmaylik, ma’lum darajada subyektivlik ham saqlanib qoladi, bu tabiiy holat.

Ilmiy tadqiq jarayonining mohiyatini yaxshi anglagan talabalar mustaqil ilmiy tadqiqot faoliyatini yo‘lga qo‘ya oladi. Ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullangan talabalar bugungi kun talabiga to‘laqonli javob bera oladigan raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishlari shubhasizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Peregulov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: “Moliya” nashriyoti, 2002.

2. Yusufbekov.N.R., Muhamedov B.E., G‘ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1997.
3. Asilova G.A. Ilmiy Tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. 2020.

**WORDLY**  
KNOWLEDGE

***Анорбоева М.С.***

***Андижон давлат чет тиллар институти ўқитувчиси***

ДИСКУРСИВ ТИЛШУНОСЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
БОСҚИЧЛАРИ

*Аннотация:* ушбу мақолада дискурсив тилишуносликнинг ривожланиш босқичлари ёритилган. Бу атама антропология, этнология, социология, психология, фалсафа, маданиятишунослик, сиёсатишунослик, журналистика, тарих, адабиётишунослик, семиотика, тилишунослик каби фан соҳаларида кенг ва фаол қўлланилувчи сўз бўлиб, асосан, муҳокама, далил, нутқ, сўз, чиқиш, мулоҳаза, суҳбат, сўзлашув, жумла, лисоний коммуникация, матн, диалог, мулоқот каби маъноларда қўлланилади.

*Калит сўз ва иборалар:* “дискурс” атамаси, антропология, этнология, социология, психология, фалсафа, маданиятишунослик, сиёсатишунослик, журналистика, тарих, адабиётишунослик, семиотика, тилишунослик.

*Anorboeva M.S.*

*Teacher of Andijan State Institute of foreign languages*

STAGES OF DEVELOPMENT OF DISCURSIVE LINGUISTICS

**Annotation:** this article covers the stages of development of discursive linguistics. The term is widely and actively used in fields of science such as Anthropology, Ethnology, sociology, psychology, philosophy, Cultural Studies, Political Science, Journalism, History, Literary Studies, semiotics, linguistics, and is mainly used in meanings such as discussion, argument, speech, speech, speech, reasoning, conversation, eloquence, sentence, linguistic communication, text, dialogue, dialogue.

**Keywords and phrases:** the term "discourse", Anthropology, Ethnology, sociology, psychology, philosophy, Cultural Studies, Political Science, Journalism, History, Literary Studies, semiotics, linguistics.

“Дискурс” атамаси антропология, этнология, социология, психология, фалсафа, маданиятшунослик, сиёсатшунослик, журналистика, тарих, адабиётшунослик, семиотика, тилшунослик каби фан соҳаларида кенг ва фаол қўлланилувчи сўз бўлиб, асосан, *муҳокама, далил, нутқ, сўз, чиқиш, мулоҳаза, суҳбат, сўзлашув, жумла, лисоний коммуникация, матн, диалог, мулоқот* каби маъноларда қўлланилади. Дискурс латинча *discursus* (мулоҳаза, далиллаш (довод) сўзидан олинган бўлиб, французчада *discours*, инглизчада *discourse* маъноларини англатади. Ушбу сўз, асосан, француз ва инглиззабон мамлакатлар тили тизимида кенг оммалашган. Масалан,

*The gym was over, the prelate had began to deliver his **discourse**. The **discourse** was over and general relaxation had set up. (J. Galsworthy)*

*Tom counted the pages of the sermon: after church he always knew how many pages there had been, but he seldom knew anything else about **the discourse**. (M. Twain).*

Унинг ўзбек тилида муқобил эквиваленти мавжуд эмас. Шунинг учун ушбу сўзни ўзбек тилига таржима қилиш жараёнида бевосита “дискурс” сўзининг ўзини қўллаш ўринлидир.

Фанда дискурс атамасидан фойдаланишнинг кўпчилик томонидан эътироф қилинган ягона талқини мавжуд эмас. Ҳаттоки, ягона фан соҳасида ҳам дискурсни тушунишда хилма-хиллик кузатилади. Масалан, лингвистикада *матн, диалог, нутқ, суҳбат* каби.

Тарихда дискурс дейилганда тантанали маросимлардаги подшо нутқи, илмий ва бошқа турдаги конгрессларда очилиш ёки ёпилиш маросимида кириш ёки яқунловчи нутқ, юқори даражадаги мукофотни олиш ёки

академияга қабул жараёнидаги нутқ тушунилган<sup>3</sup>. Антик даврларда эса фалсафий олимлар инсоннинг дискурсив ва интуитив билим ва тафаккурларини қарши қиёслаганлар. Бунга кўра дискурсив тафаккур тушунча ва ҳукмнинг кетма-кетлиги натижаси, интуитив тафаккур эса тушунча ва ҳукмнинг кетма-кетлиги натижасидан ташқари бутунлай мустақил пайдо бўлувчи ҳодиса сифатида қаралади. Фома Аквинский эса дискурсив тафаккурни бир объектдан иккинчи бир объектга интеллектуал ўтиш ҳаракати деб ҳисоблайди<sup>4</sup>. Гарчи 17-18 асрларда фанларнинг ривожланиши билан дискурсив билим (тафаккур) тушунчасининг турли хил талқинлари юзага келса-да, бу даврда “дискурсив-интуитив” жуфтлиги етакчи антиномия сифатида хизмат қилди<sup>5</sup>.

XXI асрга келиб дискурс мустақил йўналиш сифатида шаклланди. Дискурс лингвистиканинг объекти сифатида танланиб алоҳида йўналиш сифатида шаклланишида европа лингвистларининг тадқиқотлари муҳим ўрин эгаллайди. Дискурсив тилшунослик тарихига назар ташланса, дискурсни ўрганишнинг асосий сабаблари, бир томондан, америка этнолингвистлари, яъни Ф. Боас ҳамда шогирдларининг тадқиқотлари, яъни улар тадқиқотида турли тилларни оғзаки матнларини ёзиб олишлари ва уларни таҳлил қилишлари бўлса, иккинчи томондан, чех олими В. Матезиус ва унинг шогирдларининг матннинг коммуникатив тузилиши ва тема-рема муносабати тушунчаларини аниқлашга бўлган уринишлари натижаси деб баҳоланади. (А.А.Кибрик, 11)

Дискурс тушунчасининг тилшуносликка кириб келиши америка лингвисти З. Харрис номи билан боғланади.

<sup>3</sup> Философская энциклопедия.

<sup>4</sup> Новая философская энциклопедия.

<sup>5</sup> Ўша асар.

Дискурсив тилшуносликнинг фан сифатида ривожланишидаги олиб борилган тадқиқотларни шартли равишда 3 босқичга бўлиб ўрганиш мумкин.

1) 1970 йилгача бўлган тадқиқотлар. Бу босқичда америка этнолингвисти Ф. Боас ва унинг шогирдлари, чех олими В. Матезиус ва унинг шогирдлари томонидан олиб борилган тадқиқотлар. Ушбу тадқиқотлар дискурсив тилшуносликнинг пойдеворини ташкил қилади.

2) 1970 йилдан кейинги тадқиқотлар. Бу босқични дискурс анализини мустақил йўналиш сифатида расмийлаштиришга бўлган уриниш деб баҳолаш мумкин. Бу тадқиқотлар самараси ўлароқ тилшуносликда матн лингвистикаси бўйича европа мактабларининг муҳим ишлари пайдо бўла бошлади. Бу даврда европа, асосан, америка матн лингвистикаси тадқиқотчилари (van Dijk, Dressler, Labov, Givon, Chafe, Grimes), немис лингвистлари (Petofi) илгарилаб кетди.

3) 2000 йилдан кейинги тадқиқотлар. Бу босқичда дискурсив тилшуносликда жуда кўп асарлар дунёга келди. Бу соҳада дискурс анализига бағишланган «Text» и «Discourse Processes» номли журналлар, китоблар ҳамда дискурсив тилшуносликка бағишланган илмий-амалий анжуманлар ўтказилди ва ўтказилмоқда.

Дискурсив тилшуносликнинг намоёндалари тадқиқотларида асосий эътибор дискурсининг структурасига, социолингвистик хусусиятларига, когнитив жиҳатларига, грамматик хусусиятларига, дискурсининг умумий моделига, дискурсдаги ахборот оқимига, маиший диалог анализига қаратилди.

Кейинги йилларда ўзбек тилшунослигида ҳам дискурс юзасидан бир қатор илмий-мақолалар ва диссертациялар юзага келди (Ш. Сафаров, С. Боймирзаева, В. Хегай, Л. Раупова, З. Пардаев, М. Абдурахманова, Д. Худойберганова). Лекин бу тадқиқотлар ўзбек тилшунослигида дискурсив таҳлил масаласида қилиниши керак бўлган илмий ишларнинг

бошланишидир, холос. Ўйлаймизки, гарчи Европа ва жаҳон тилшунослигида бу масалаларга олдинроқ эътибор қаратилиб, ва ҳаттоки айримлари ҳозирда алоҳида назария сифатида (масалан, лингвистик жанр назарияси каби) эътироф этилаётган паллада ўзбек тилшунослигида ҳам лингвистлар диққати дискурс анализига қаратилади. Чунки ҳали дискурсив тилшуносликда ўз ечимини топмаган муаммолар, масалан, дискурсни аниқлаш ёки уни классификация қилишнинг умумэътироф этган ягона усули мавжуд эмаслиги каби бир қатор баҳсталаб масалалари борки, булар тадқиқотчилар олдига улкан масъулиятли вазифалар юклайди.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, бугунги кунда дискурс тилшуносликда муҳим масала сифатида ўрганилмоқда. Ўзбек тилшунослигида бу масала юзасидан тадқиқот ишлари камлиги боис ҳам тилшуносликка бағишланган асарларда бу йўналиш ҳақида тўлиқ ва батафсил маълумотлар учрамайди. Фикримизча, бу йўналишнинг шаклланиши, ўрни, асосий методлари ҳақидаги маълумотлар нафақат талабалар, балки изланувчи тадқиқотчилар ўртасида янги илмий тадқиқотларнинг юзага келишига сабаб бўлиши мумкин. Шу нуқтаи – назардан ушбу муаммога бағишланган қўлланмалар чоп этиш мақсадга мувофиқдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Т. Ван Дейк. Язык. Познание. Коммуникация. М., 1989.
2. А. Ирискулов. Тилшуносликка кириш. Т., 2008.
3. Н. Д. Арутюнова. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. М., “Советская энциклопедия”, 1990.
4. Л. Раупова. Диалогик дискурснинг миллий-ментал белгилари. //Ўзбек тили ва адабиёти. “Фан” нашриёти., Т., 5/ 2010.
5. Ш. Сафаров. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008.
6. Ю.Н. Караулов, В. В. Петров. От грамматики текста к когнитивной теории дискурса. В кн: Т. Ван Дейк. Язык. Познание. Коммуникация. М., 1989.

7. Т. А. Яцюк. Терминология и дискурс права. М., 1996.
8. Дискурс – электронный ресурс: <http://www.krugosvet.ru/articles>



WORDLY  
KNOWLEDGE

*Ташбаева Г. Ю.*

*старший преподаватель*

*Наманганский инженерно-строительный институт*

*Наманган, Узбекистан*

**СОЦИАЛЬНОЕ ПАРТНЕРСТВО: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ,  
ПРИНЦИПЫ**

*Аннотация:* В статье рассматривается сущность механизма социального партнерства, как особой формой сотрудничества, базирующегося на равноправии, сотрудничестве, взаимосогласии и учете интересов.

*Ключевые слова:* партнерство, взаимодействие, социальное партнерство, сотрудничество, открытый диалог, согласование интересов, гражданское общество, негосударственные некоммерческие организации, общественные отношения.

*Tashbaeva G. Yu.*

*senior lecturer*

*Namangan Engineering-construction Institute*

*Namangan, Uzbekistan*

**SOCIAL PARTNERSHIP: CONCEPT, ESSENCE, PRINCIPLES**

*Abstract:* The article examines the essence of the mechanism of social partnership, as a special form of cooperation based on equality, cooperation, mutual agreement and consideration of interests.

*Key word: partnership, interaction, social partnership, cooperation, open dialogue, coordination of interests, civil society, non-governmental non-profit organizations, public relations.*

